

PAPER

GULJAMOL ASQAROVA SHE'RLARIDA MILLIY REALIYANI IFODALOVCHI BIRLIKLAR

Dilnavoz Abduraximova^{1,*}

¹Farg'ona davlat universiteti magistranti

*abduraximova@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada milliy realiyalarning lingvokulturologiyadagi o'rni va ahamiyati, badiiy matndagi funksional uslubiy vazifalari tahlil etilgan. Har bir xalq ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarini chuqurroq anglashga, o'z tarixini bilishga intiladi, shuningdek har bir millat va elatning o'ziga xos urf-odatlarini, an'analari, milliyliyi, qadriyati o'sha xalqning xalq bo'lib shakllangan davridan boshlab taraqqiy etgandir. Xalqning xalqligi uning urf-odatlarini, ajdodlaridan meros milliy an'analari bilan ko'rinadi.

Key words: Milliy-madaniy birlik, konsept, urf-odat, beshik, to'n, cho'pon osh.

Til xabar yetkazish, ta'sir etish, o'zgalarning ruhiyatini so'z orqali anglash xususiyatiga ega. Til va madaniyatning asosiy tushunchalaridan biri esa bu – realiya. Odatda, boshqa tilga bir so'z bilan tarjima qilinmaydigan va boshqa madaniyatlarda o'xshashi bo'lmagan tushunchalarni belgilashga xizmat qiladi. Realialarni voqelikka munosabatiga ko'ra qisqartmalar, so'zlar, so'z birikmalari va jummalarga bo'lish mumkin. Ular ijtimoiy-siyosiy, geografik, etnografik xarakterdagi ma'nolarni o'zida aks ettirib, turli davrlarga tegishli bo'lishi ham mumkin.

D.Xudoyberganova milliy realiyaga shunday ta'rif bergan: "Muayyan xalqning hayoti, turmushi, madaniyati, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti uchun

xarakterli bo'lgan predmetlar, hodisalar va obyektlarni nomlovchi, boshqa xalqlar uchun unchalik tanish bo'lmagan yoki begona bo'lgan, ularning tillarida aniq muqobili bo'lmagan, milliy koloritni ifodalovchi so'zlar yoki so'z birikmalari; muqobilsiz leksika turlaridan biri."

R.Fayzullayev realiyaga quyidagicha izoh beradi: "Realiya – bir xalq tilida paydo bo'lib, millatning turmush tarzi, tarixi, madaniyatini o'zida aks ettiradi va o'zga tilda uning aniq muqobili bo'lmaydi". Realialar ma'lum bir xalqqa xos bo'lgan milliy-madaniy jihatlarni aks ettiruvchi birlik bo'lib, ularda xalqning ijtimoiy kelib chiqishi, milliy ruhi, tarixi va madaniyati bilan bog'liq axborot zohir bo'ladi. Realiya

Compiled on: February 2, 2026.

Copyright: ©2026 by the authors. Submitted to *Advances in Science and Humanities* for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

lotincha soʻz boʻlib, buyumga, predmetga oid degan maʼnoni bildiradi. Realialar haqida koʻplab tadqiqotlar olib borgan S.Vlaxov va S.Florinlar unga shunday taʼrif berishadi: “Realialar – muayyan bir xalqning hayoti, turmushi, urf-odati, madaniyati, ijtimoiy taraqqiyotiga oid narsa, predmet, voqea-hodisalarni ifodalovchi soʻzlar boʻlib, milliy va davriy xususiyatga egadirlar”.

Milliy-madaniy birliklarga har bir xalqqa xos boʻlgan etnik va boshqa xalqda kuzatilmagan jihatlari, uning oʻz millatidan kelib chiqib shakllangan milliy dunyoqarashi, urf-odat va anʼanalari, ota-bobolaridan meros qolgan xalq ogʻzaki ijodi, milliy qadriyatlari, muloqot meʼyorlari, maqol, matal, ibora, majoziy ifodalar kiradi. Lekin bu birliklarning har birida milliy belgi turlicha ifodalaniladi. Baʼzilarida toʻgʻridan toʻgʻri milliylik belgisi koʻrinib turadigan boʻlsa, baʼzilarida bu belgi oʻsha xalqning ongida aks etadi. Biz uchun non farovonlik, toʻkinlik, azizlik boʻlsa, boshqa millat uchun u shunchaki taom bilan yeyiladigan hamir. Yoki beshik soʻzi. Bu soʻz oʻzbek xalqining ongida oilaning yana bir insonga koʻpayishi, xursandchilik, milliy urf-odat boʻlib gavdalanadi va milliy-madaniy birlik hisobiga kiradi. Bunday soʻzlarga xos madaniylik belgisi uning lugʻaviy atash maʼnosi orqali anglashiladi. Bu kabi birliklar millatning oʻzligini assotsatsiyalaydi va boshqa xalqda kuzatilmaydi. Bular lingvokulturologiyada realialar yoki ekvavalentsiz, oʻrnini bosib boʻlmaydigan soʻzlar sifatida oʻrganiladi. Guljamol Asqarovaning qator sheʼrlarida mana shunday birliklar koʻplab uchraydi. Xalqimizda qadimdan “beshik” chaqaloqni uxlatish uchun maxsus yogʻochdan tayyorlangan. Beshikni buyum realiyasi sifatida qabul qilish mumkin. Uning atrofida esa turli-tuman milliy udumlarimiz aylanadi.

Yovqurligim libosin yechib,
Dubulgʻamni boshimdan otsam.
Toʻmarisdan qolgan qilichni
Bir beshikning narxiga sotsam.

(Ayol qoʻshigʻi)

Oʻzbek tilining izohli lugʻatida “beshik” soʻzi chaqaloqni belab va tebratib uxlatish uchun tut yoki tol yogʻochidan yasalgan yoʻrgʻa oyoqli maxsus moslama deb izohlanadi. Beshik aynan

oʻzbeklarning bolajoʻyligini koʻrsatib beradigan milliy realiyadir.

“Beshik” konseptining oʻzbek xalqi ongida gavdalanishi va uning tilda keng tarqalishi va unda bolajonlik, quvonch, shirin tashvish semalarining berilishi, bu realianing oʻzbek xalqi hayotida juda keng tarqalganligini koʻrsatadi. Hattoki oʻzbek xalq maqollarida beshik realiyasi ishtirok etgan oʻrinlar juda koʻp: “Ona yurtning – oltin beshiging; Mard muhtoj beshigi, elga ochiq eshigi; Kimxob toʻning boʻlguncha, oltin beshiging boʻlsin; Inoq oilada beshik boʻshamas; Eshik koʻrgan yurt buzar, beshik koʻrgan yurt tuzar; Eshik koʻrganni emas, beshik koʻrganni ol; Eshikli boʻlding – beshikli boʻlding; Bola beshikdan yiqulguncha, podsho taxtidan yiqilsin; Bola boʻlsa beshik topilar; Beshikdagi bolaning bek boʻlishini kim bilar; Beshikdagiga tegma, betingni yular; Beshikda tekkan, kafanda ketar. Oʻzbekning eng shoh taomi palov, boshqacha aytganda oshdir. Qay bir millat egasidan soʻramang, Oʻzbekistonning eng yoqqan jihati va esda qolarli boʻlgani bu uning oshi ekanligini yuzida tabassum bilan aytib beradilar. Oʻzbek tilida osh koʻp maʼnoli soʻz boʻlib u izohli lugʻatda shunday izohlanadi: “Osh – fors. 1. Yovgʻon shoʻrva, xoʻrda; 2. Umuman, har qanday ovqat, taom; 3. Palov; 4. Baʼzi munosabatlar bilan oʻtkaziladigan ziyofatlar nomining tarkibiy qismi, masalan, qiz oshi, maslahat oshi, arvoh oshi.”

Pari qizlar holvangni yerlar,
Osh tortarmish mardona sherlar
Taqdiringdan koʻrasan derlar
Yo “ha” degil, yo “yoʻq” de, dilim.

(Oʻlan)

Shoiraning ushbu sheʼrida osh milliy taom ekanligi, oʻzbek xonadonida ikki yoshning nikohini el-ulusga maʼlum qilish oldidan osh berilishi, oshning xursandchilik kunlarida shoh taom sifatida katta qozonlarda pishirilishi, uning oʻzbek xonadonida katta ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Bu faqatgina oʻzbek xonadoniga xos boʻlgan sof urf-odatdir. Ayniqsa, oʻzbeklar toʻyini nahor oshsiz tasavvur qilib boʻlmaydi.

Baʼzan maqollarda osh realiyasining oʻrnida “palov” soʻzi kelganini koʻrish mumkin. Etimologik lugʻatda unga milliy taom sifati beriladi. Palovning paydo boʻlishi Ibn Sino nomi bilan bogʻliq ekanligi tarixda aytib oʻtilgan. Aslini

olganda, palov so'zi taom tarkibiga kiruvchi masalliqning qisqartmasidan tashkil topgan: P-piyoz, A-ayoz – sabzi, L-lahm – go'sht, O-olio – moy, B-vet – tuz. Uning milliyligi dunyo tomonidan tan olingan bo'lib 2016-yilda palov tayyorlash madaniyati va an'anasi YUNESKOning nomoddiy merosi qatoriga kiritilgan. Palov o'zbek xalqidan tashqari hind (pulaka), qozoq (palau), qirg'iz (paloo), qrim-tatar (pilav), tojikcha (oshi palov), tatarcha (pilau), turkcha (pilav), turkman (palov), uyg'ur (polou) xalqlarida ham tayyorlanadi. Lekin ular o'zbek palovidan milliy semalari bilan farq qiladi.

Madaniyat bilan bog'liq realiyalar jamiyat taraqqiyotidagi barcha o'zgarishlarga tezda ta'sir qiladi. Realialarda til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik yaqqol ko'zga tashlanadi. Realialarning boshqa so'zlardan farqi u ifodalayotgan predmet, tushuncha, hodisaning bir tomondan xalq bilan va boshqa tarafdin vaqtning tarixiy bo'lagi bilan bog'lanishidadir.

Realianing eng asosiy xususiyati, u faqat qaysi madaniyatga tegishli bo'lsa, o'sha madaniyatda o'ziga yuklatilgan vazifani bajara olishida ko'rinadi. Shunday realialardan biri bu – chopon:

Choponim itqitib ketdim,
Dorlarim salqitib ketdim,
Soyani chalg'itib ketdim,
Ishqqa cho'lg'ona-cho'lg'ona.

(Avrash)

Yuqorida keltirilgan misrada kelgan "chopon" so'zi kiyim ustidan kiyiladigan, ichiga paxta solib qavilgan uzun milliy ust-boshni bildiradi. Bu milliy kiyim nafaqat xalqning milliyligi, balki tildagi o'ziga xos madaniyatni ham aks ettiradi:

Mangu zafarlarga otlangan yurtim,
O'zbekka Xudodan xatlangan yurtim.
Belin belbog' quchgan bobodehqonim,
Shonli zafar quchgan O'zbekistonim.

(O'zbekiston madhi)

Ushbu misralarda shoir belbog' orqali o'zbek xalqi erkaklarining ko'rinishini, umuman olganda, o'zbek xalqining mehnatkashligini, ko'rsatib bergan.

Realiyalar o'z xususiyatiga ko'ra atamalarga va atoqli otlarga yaqin turadi. Lekin realiyalar ma'lum bir xalqning madaniyati bilan bog'lanib, aynan shu xalq tilida ishlatiladigan va boshqa xalqlarda

mavjud bo'lmagan narsa-buyum nomlaridir. D.Rozental, M.Telenkovalar uni "so'zning nominativ ma'nosi uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi, mavjud madaniyat predmetlari" deb ta'riflaydi. N.Sobolev esa unga ekvivalentga ega bo'lmagan maishiy va milliy so'zlar hamda boshqa tillarda mavjud bo'lmagan milliy turmush tarzi deb izoh bergan. Eng to'g'ri ta'rifni A.Fedorov berib, u realiya deganda "ijtimoiy hayot va o'ziga xos turmush tarzini anglatuvchi mahalliy ifodalar va boshqa millatlarning hatto tushunchasida ham bo'lmagan so'z" deb aytadi. Boshqa bir tilshunos esa realiyani muayyan millatga xos urf-odatlar, maishiy predmetlar sifatida talqin qiladi. Shunga ko'ra realialarni milliy va tarixiy kaloritni o'zida mujassamlagan so'z deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Худойберганава Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли уфати. – Тошкент: Turon zamin ziyo. 2015. 32–б.
2. Файзуллаева Р. К проблеме передачи национально колорита художественном переводе. дисс...канд.филол. наук. – Ташкент, 1972. –93 с.
3. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. – М.: Международные отношения, 1980. – 343 с.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати (2007). – Тошкент. 245–б.
5. О'zbek xalq maqollari. Т. Mirzayev, A.Musoqulov, B.Sarimsoqov. – Toshkent: Sharq. 2005.